



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

USMON AZIM IJODIDA G'AZAL JANRI

Firuza Buriyeva

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand
feruzaburiyeva79@mail.ru

Annotatsiya

Ma'lumki, zamonaviy o'zbek she'riyatining yetakchi vakili Usmon Azim ijodi erkin ifoda tarzi, janr-shakl rang-barangligi bilan o'ziga xos. Shoир she'riyatida XX asr boshlarida rus adabiyoti orqali kirib kelgan erkin, oq she'r namunalari, stans, ayniqsa, ballada janridagi badiiy yuksak darajadagi ko'pgina she'rlarni uchratish mumkin. Bu esa ijodkorning hamisha izlanuvchan bo'lganligi, jahon she'riyati andozalariga loyiq asarlar yaratishga intilib kelganligidan dalolat beradi. Ammo shoир umumijodiga nazar tashlansa, uning folklor va mumtoz poetik an'analarning ham munosib davomchisi bo'lganligi, xususan, g'azal, muxammas, murabba' kabi janrlarning mumtoz mezonlarga mos namunalarini yaratganligini ko'rish mumkin. Mazkur maqola shoирning ilmiy jamoatchilikda yetarli darajada yoritilmagan asarlari –g'azallari tahlil va talqinlariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: aruz, g'azal, muxammas, murabba', adabiy an'ana, mubolag'a, tazod, nido, bayt, musajja', taxallus.

ЖАНР ГАЗЕЛИ В ТВОРЧЕСТВЕ ОСМАНА АЗИМА

Фируза Буриева,

Филологические науки доктор философии (PhD),
Узбекско-Финляндский педагогический институт, Самарканд
feruzaburiyeva79@mail.ru

Аннотация

Известно, что творчество Османа Азима, ведущего представителя современной узбекской поэзии, отличается свободой выражения, разнообразием жанрово-форм. В поэзии поэта можно встретить образцы



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

свободной, белой поэзии, проникшей через русскую литературу в начале XX века, многие стихотворения художественного высокого уровня, особенно в жанре баллады. Это свидетельствует о том, что творец всегда был любознательен, стремился создавать произведения, достойные образцов мировой поэзии. Но если посмотреть на творчество поэта в целом, можно увидеть, что он был достойным продолжателем как фольклорной, так и классической поэтической традиции, в частности, создавая образцы таких жанров, как газель, мухаммас, мурабба, соответствующие классическим критериям. Данная статья посвящена анализу и интерпретации произведений поэта –газелей, недостаточно освещенных в научном сообществе.

Ключевые слова: аруз, газель, мухаммас, мурабба', литературная традиция, преувеличение, тазод, восклицание, байт, мусаджя, псевдоним.

THE GHAZAL GENRE IN THE WORK OF USMON AZIM

Firuza Buriyeva

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,
Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Samarkand
feruzaburiyeva79@mail.ru

Annotation

As is known, the work of Usmon Azim, a leading representative of modern Uzbek poetry, is unique in its free style of expression, diversity of genre and form. In the poet's poetry, one can find many poems of a high artistic level, examples of free, white poetry, stanzas, especially ballads, which came through Russian literature at the beginning of the 20th century. This indicates that the creator was always inquisitive and sought to create works worthy of the standards of world poetry. However, if we look at the poet's entire work, we can see that he was a worthy successor of folklore and classical poetic traditions, in particular, he created examples of genres such as ghazal, muhammas, murabba' that meet classical criteria. This article is devoted to the analysis and interpretation of the poet's works - ghazals, which have not been sufficiently covered in the scientific community.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

Keywords: aruz, ghazal, muhammas, murabba', literary tradition, exaggeration, tazod, nida, bayt, musajja', pseudonym.

Kirish

Hozirgi o‘zbek she’riyatining yetakchi vakillaridan biri Usmon Azim she’riyati erkin ifoda tarzi, janr-shakl rang-barangligi bilan o‘ziga xos. Biz shoirning umumijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning hamisha izlanuvchan bo‘lganliginining guvohi bo‘lamiz; shuningdek, ijodkorning mumtoz she’riy an’analarni munosib davom ettirganligini, xususan, aruz va g‘azal, muxammas, murabba’ kabi janrlarning yuksak namunalarini yaratganligini ham e’tirof etmoq lozim.

Usmon Azimning saylanmasida aruz vaznidagi she’rlar qamrovini ikki g‘azal va bir muxammas belgilasa-da, ammo shoirning boshqa to‘plamlariga nazar tashlansa, bu tarkibning birmuncha kengroq ekanligini ko‘rish mumkin. Xususan, ijodkorning keyingi yillarda nashr etilgan “Tanlangan asarlar”[2] iga aruz vaznidagi bir qancha she’rlar ham kiritilgan bo‘lib, ular “Bilmadim qaysi bahorning...”, “Dunyo o‘tar”, “Kakhashonning changida...”, “Kim manim yorug‘ yuzim...”, “Odamizod royidanmas...”, “Ne uchun ko‘nglimga yetdi...”, “Ruh samo qo‘ynidakim...”, “Muztaribdirman – sitamning...”, “Ruh shamoli tebratur...”, “Dema ko‘ndi bu ko‘ngil...” kabi misralar bilan boshlanuvchi g‘azallar; “Yomonlar zavq ila otg‘on” murabba’dan iboratdir.

Usmon Azim ijodida mumtoz adabiy an’analarga ergashish, salaflarga izdoshlik yaqqol ko‘zga tashlanuvchi yetakchi xususiyat hisoblanmasa-da, shoirning yuqorida sanab o‘tilgan aruziy she’rlaridan uning mumtoz she’riyat malohatini inja his etuvchi, shu bilan birga ularni ijodiy originallik bilan ifodalay oluvchi ijodkor ekanligini ko‘rish mumkin. Avvalo, shoir aruziy she’rlarining badiiy tili diqqatimizni tortadi. Zero, har bir ijodkorning mumtoz janrlarga, xususan, “g‘azal”ga murojaati XX asr boshlaridayoq “moziyga qaytish” dek bir ijod jarayoni hisoblanib, shu bois zamon ruhi asar poetikasida, ayniqsa, so‘zlik jihatida o‘z aksini topib kelgan:

Kakhashonning changida

Ruh mast o‘lib, sayyor kelar.

Bul falak avzoyidan



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

Ko‘nglimga ming alyor kelar.

Jomni olkim, zohir-u

Botin jahon farqlanmasin,

Zohir-u botin tilimga

Bul kecha tayyor kelar.[2.109]

Guvohi bo‘lganimizdek, she’rda qo‘llanilgan arxaik, tarixiy so‘zlar va qo‘srimchalar (kahkashon, mast o‘lib, falak avzoyidan, alyor, jom, zohir-botin,bul), shuningdek, she’rning orifona falsafiy mazmuni tufayli uni mumtoz she’rlardan farq etib bo‘lmaydi. Demak, she’r aruz vaznida bo‘lar ekan, garchand, yuqorida keltirib o‘tganimizdek, XX asr boshlarida A.Qahhor “She’rning tili bundan ellik yil burungi til” deya aruziy she’rlar tilida eskirgan qatlamga mansub so‘zlarning ishlatilishi nuqson sanagan bo’lsa-da, ularda forsiy-arabiy, tarixiy va arxaik so‘zlarning ishlatilishi jozibaliroq tuyuladi. Chunki har bir qadriyat asl saqlanishi tuzuk bo‘lganidek, an’anaviylik ham mumtoz adabiyot kabi tasavvur bergani ma’qulroq ekanligini ijodkorlarimiz teran anglaganlar. Aruziy ohang kuyga monand, shoir bu vaznda ijod etar ekan, so‘z qo‘llashda ham o‘zini cheklanganroq, mas’uliyatliroq his etadi. Shuning uchun ham XX asr shoirlari ijodidagi aruz vaznidagi she’rlarning ham ko‘pchiligi kuyga solingan. Masalan, Omon Matjon ijodidagi Miriyga o‘xshatma tarzida bitilgan “Qo‘sish”, Navoiy g‘azaliga muxammas tarzida yozilgan “Avvalg‘ilarga o‘xshamas” she’rlarining ham xalqqa manzur qoshiqlarga aylanganligi fikrimizning dalilidir. Usmon Azimning bu turkumdagagi she’rlari garchand hali ijro etilgan bo‘lmasa-da, ularning ham aruziy musiqaga monand ohanglari mumtozdir. Dastlabki qarashda shoir g‘azallarini murabba’ deb o‘ylash mumkin: shoir ijodiy maqsadiga ko‘ra har bir misra ikki satrga bo‘linib to‘rtlik bandlar shakliga keltirilgan. She’rni vazn va qofiyalanish jihatidan tahlil etganimizdagina ularning g‘azal ekanligi ma’lum bo‘ladi:

Mayi vahdat zarrasi // Qay ishqqa etdi telbavor,

– V – – / – V – – / – V – – / – V –

foilotun / foilotun / foilotun / foilon

Men neni yozsam qog‘ozga // Qon yutib izhor kelar.

– V – – / – V – – / – V – – / – V –



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

foilotun / foilotun / foilotun / foilon

Yuqoridagi g‘azaldan olingan bayt tahlilidan bilish mumkinki, she’r aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan; mazmunan esa rindona ekanligi ko‘rinadi. Baytning mazmuni esa unda keltirilgan mayi vahdat tushunchasiga izoh keltirish orqali anglanishi lozimdek: “Mayi vahdat – birlik, yagonalik mayi. Orifona ma’noda Xudo diydoriga oshiq insonning qalbida ilohiy nur porlab, uning ruhining Mutlaq ruh bilan qo‘shilishi va shu tufayli oliv ma’naviy lazzat topishi. Ayni paytda ilohiylik va moddiylikning birlashuvi, jamuljam bo‘lishini ham anglatadi.[4]

Demak, bayt mazmunan lirk qahramon qalbiga tushgan ilohiy ishq va uning “qon yutib” aytiladigan izhori haqidadir.

Keyingi baytda esa holat haddi a’loga yaqinlashib, tasvir yanada quyuqlashadi:

Ne davom ishqda hayot – // Bir oh ila bo‘lmas yetib,

Har onimda ko‘zda yosh, // Ko‘ngilda “oh” takror kelur.

Agar inson hayoti ko‘ngilda ishq bilan davom etar ekan, ko‘p dard chekadi; har oni yig‘lash va oh tortish bilan o‘tadi.

Beshinchı baytiga o‘tar ekanmiz, she’rning badiiy san’at, poetik ifodaviylik jihatidan ham an’anaviy g‘azallar monand ekanligi ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, baytda mubalag‘a, nido, tazod san’atlarining qo‘llanilishida ijodiy originallikdan ko‘ra an’anaviylikning yetakchi ekanligini diqqatimizni tortadi:

Yorijon, gar yetmas ersam, // Menmas gunohkor – ayblama!

Bir vujudda bitta do‘st, // Yuz ming tuman ag‘yor kelar.

She’rdagi ilohiy ma’no yanada teranlashadi, lirk qahramon ushbu baytda o‘z ichki kechinmalari bayonidan chekingan holda, yorga murojaat yo‘liga o‘tib, unga oz dardini samimi uzrxohlik bilan aytib olyapti: “Yorijon(Oolloh), agarda vaslingga yeta olmasam, ma’zur tutgin, ayblama, chunki mening vujudimda bitta do‘st va yuz ming tuman ag‘yor mavjuddir”. Ya’ni bu yerda inson siyratidagi fazilatlar-do‘st va illatlar esa ag‘yor sifatida ramzan ifoda etilganini tushunish qiyin emas.

She’rning keyingi baytida an’anaviy ifoda yo‘sini birmuncha original tasvirlar uchun asos bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz:

Tez chiqay ishq yo‘liga, // Jondin magar bordir umid,

Poyima changdek yiqilsin – // Nechakim devor kelar.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

Baytda mazmunida anglashilganidek, ishq yoliga taslim bo‘lish omon qolishning yagona chorasi ekanligi aytilar ekan, mumtoz she’riyatdagi an’anaviy “poyiga changdek yiqilish”, u asosan oshiqning yor oyog‘i ostiga yiqilishiga nisbatan qo‘llanilib kelgan, tashbehi o‘zga yangi bir ma’noda keltiriladi. Shuningdek, oshiqning optimist ekanligi, yorga yetish uchun mavjud to‘siflar— devorlarning yiqilib changga aylanishi va oyoq ostida qolishiga ishonishi namoyon bo‘ladi. Ushbu tasvirlar shoirning poetik topilmasi, izlanuvchanligi samarasi sifatida yuzaga keladi.

She’rning so‘nggi bayti so‘zlik jihatni va badiiyligiga ko‘ra mumtoz g‘azallardan farqlanmasa-da, mazmun jihatdan zamonaviy ijodkorga tegishli ekanligi, ya’ni unda didaktikadan ko‘ra, kechinma izhoridagi rostlik ifodasi yaqqol namoyon bo‘ladi:
Bul sayyoh zulmat ichinda // Men siyoh yuzman, evoh,

Gohida shayton yo‘li // Ishq lafzidan ayyor kelar.[2.109]

Zero, mumtoz lirk qahramonning asosan ezgu sifatli inson sifatida gavdalanishi an’anaviy bo‘lib, uning “shayton yo‘li”ga aldangan siyoh yuz sifatida tasvirlanishi mumtoz she’riy ifodaga xilof ekanligi seziladi. Ruhiyat tasviri, ko‘ngil rozlarida real hayotga bir qadar yaqinlashgan hozirgi she’riyatda esa ushbu poetik mazmunga hatto istisno sifatida ham qaralmasdan, odatiy qabul qilinishi tabiiy hisoblanadi.

Shoir ijodidagi g‘azallarning aksariyati an’anaviy oddiy g‘azallar ko‘rinishida: har biri matla’ va maqta’ baytlariga ega bo‘lib, ayrim g‘azallar maqta’sida shoir taxallusi ham keltirilgan:

Qor ichra, Usmon, maysaman, // Har sharpaga jonim halak –

Ki bahordan mujda yetgay: – // Bosh ko‘tar – ko‘chdi bulut.[2.46]

Garchand shoirning taxallus keltirilgan she’rlari uncha ko‘p bo‘lmasa-da, bu borada ayrim novatorona yondashuvlari ko‘zga tashlanadi. Jumladan, aruz vaznidagi murabba’da shoirning taxallusi so‘z o‘yiniga asoslangan tarzda o‘zgacha namoyon bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz:

Tavba qildim, payg‘ambar-u rahmonlikka da’vom yo‘qdir,

Ul to‘rt do‘stning biri bo‘lg‘on Usmonlikka da’vom yo‘qdir.

Biroq tuydim – dunyo ichra avomlikka da’vom yo‘qdir,

Bildim, faqat el qolg‘aydir – malomatlar o‘tib ketgay. [2.87]



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

Guvohi bo‘lganimizdek, so‘zma-so‘z tahlil etilsa, bandning birinchi, ikkinchi misralaridan “Xudo, payg‘ambar, halifa, ya’ni hatto chahoryorning biri bo‘lgan–halifa Usmon bo‘lishga ham da’vom yo‘q, tavba qilaman”, degan ma’no kelib chiqsa-da, tajnis asosida shoirning taxallusga ishora etgani seziladi.

Shoir g‘azallari qofiya tuzilishiga ko‘ra a-a, b-a, s-a, d-a... tarzida bo‘lib, ular orasida bir musajja’-g‘azal ham e’tiborni tortadi. Mazkur g‘azalda matla’dan tashqari barcha baytlarida ichki qo‘fiyalarga ham ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, g‘azalning ikkinchi va uchinchi baytlari quyidagicha shakllangan:

...Olovday o‘rtanib kun ko‘r, // Har onda ming asr mung ko‘r,
Har mungda ming bir tugun ko‘r // Va savollar bag‘oyat et.

Sabr! Sabr! Mudom sabr! – // Bo‘lgunicha darding kabir,
Yovga topib ezgu ta’bir, // O‘z fe’lingdan shikoyat et...[2.106]

Umuman olganda, Usmon Azim mazkur g‘azallari bilan bu boradagi an’anolarni mahorat bilan davom ettirdi. Ularning mavzu doirasi, g‘oyaviy mazmuni, so‘zlik jihatni hamda badiiy vositalarini imkon qadar mumtoz bo‘lishiga intildi. Ammo shu bilan birga ushbu she’rlarning ifoda tarzida Usmon Azim she’riyatiga xos dilovarlik, jo‘shqin pafos hamda shuning bilan birga falsafiy-intellektuallik aks etadi. Bu esa she’rlardagi turli poetik vositalarning yangilanishlarida, kompozitsion unsurlarning tanlanishida namoyon bo‘lib turibdi. Xususan, g‘azallardagi tazod, talmeh, tashbeh, mubolag‘a kabi badiiy vositalarda an’anaviylikning original ifoda tarzi bilan uyg‘unlashtirilgani ko‘zga tashlanadi. Olaylik, shoir yomg‘irni ko‘z yoshga **tashbeh** etar ekan, ruhni to‘zonli dashtga mengzaydi:

Ne ajabkim, evrilur/ Jonimda gar yong‘in emas,
Ruhi gardim dashtini ko‘zyosh kabi quchdi bulut.[2.45]

Quyidagi baytda esa tazodni xalq tilidagi “Aybni o‘zingdan qidir”, “Avval o‘zingga boq, so‘ngra nog‘ora qoq” kabi maqollarda ifodalangan hikmatlilik uchun vosita etilganini ko‘rishimiz mumkin:

Sabr! Sabr! Mudom sabr! –// Bo‘lgunicha darding kabir,
Yovga topib ezgu ta’bir// O‘z fe’lingdan shikoyat et.[2.106]



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

Yoki shoir talmeh san’ati uchun mumtoz she’riyatda sabr timsoliga aylangan Ayyub nomini keltirar ekan, dayr-u dunni qurtdan yomon ekanligini aytib, ushbu obraz bilan bog‘liq boshqa epizodlardan ham foydalangan holda mubolag‘aviy ta’sirchan ifodani yuzaga keltiradi:

Toqatda men Ayyub kibi // Bir hol kasb etmoq edim,

Dayr-u dun qurtdin yomon // G‘ayur ravo etdi , e voh.[2.120]

Shoir g‘azallari mazmunan keng qamrovli bo‘lib, ularni mavzusiga ko‘ra tabiat tasviriga bag‘ishlangan, orifona, oshiqona, rindona, falsafiy-ta’limiy, hasbi hol mazmunli kabi turlarga ajratish mumkin. Ammo barcha g‘azallarni bir umumiy jihat bog‘laydi: ulardagi lirik qahramoni turmushning past-u balandini ko‘rgan, dunyo va oxirat haqida o‘ylay boshlagan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, shoirning yuqorida nomlari keltirilgan barcha g‘azallarida his-tuyg‘u ifodasidan ko‘ra fikriylikning zalvori seziladi.

Usmon Azim tabiatan izlanuvchan, xilma-xil ifoda tarziga intilish ijodida yetakchi bo‘lgan ijodkordir. Bu esa shoirning aruz vazni va g‘azalga munosabatida ham bir qadar ko‘zga tashlanadi. Shoirning saylanmasidagi she’rlar sirasida jihatdan shaklan g‘azalga o‘xhash, ammo barmoq vaznida yozilgan “Shu kunlar to‘liqib dard bo‘lib yuribman”(216-bet), “Quyosh bor, biz – g‘olib – kunlar kuldilar” (227-bet), “Kuz keldi – har bargni qontalosh etdi”(384-bet) kabi misralar bilan boshlanuvchi she’rlarini uchratish mumkin. Garchand muallif tomonidan mazkur she’rlarning janri g‘azal ekanligiga ishora etilmagan bo‘lsa-da, qofiyalanish tizimi radifi, bayt-bayt sifatida shakllangani ushbu she’rlar shoirning g‘azal janri borasida izlanuvchanligi ekanligini ko‘rsatadi. Albatta, g‘azalni barmoq janrida yozishga urinish Usmon Azimgacha ham ayrim shoirlar ijodida mavjud bo‘lgan. Hatto bu haqda ayrim adabiyotshunoslar ba’zi fikrlar ham bildirgan bo‘lib, jumladan, adabiyotshunos R.Orzibekov tadqiqotlarida zamonaviy she’riyatda g‘azalnavislik xususdagi ushbu qaydlar shu tarkibdandir:“Hozirgi g‘azalchilikda qofiyalarnish tartibi va romantik uslubi bilan shaklan g‘azalga o‘xshasa-da, lekin aruz vazniga tushmaydigan she’rlar ham paydo bo‘lib turibdi. Yusuf Shomansurovning “Barmoqdagi g‘azallar” turkumi ostidagi she’rlari, Ismoil To‘lakning “G‘azalnomalar” deb nomlangan she’rlari, Anvar Obidjonning Gulmat turkumidagi g‘azallari shunday she’rlar sirasiga kiradi. Ularni g‘azal namunasi deyish qiyin”.[1.52]



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

Darhaqiqat, aruz va g‘azal janri borasidagi novatorliklar har doim ham adabiyotshunoslikda xush qabul qilinmadi. Shu bois ularga oid ayrim izlanishlar novatorlik emas, ijodkorning poetik ifoda tarzi sifatida baholab kelindi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Orzibekov R. O‘zbek lirik she’riyati janrlari. –Toshkent: O‘zFA “Fan” nashriyoti. 2006. – 350 bet.
2. Усмон Азим. Танланган асарлар. 3-жилд. – Т.: Fafur Fulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 464 bet.
3. Усмон Азим. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 1995, – 432 б.
- 4.<https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-ashriqat-najmiddin-komilov-bir-gazal-manosi.html>. 27.05.2017.